


## OMINA SHENLIKO‘G‘LINING "VIJDON AZOBI" ASARIGA TAQRIZ



Sayliyeva Zarina Rahmuddinovna

Buxoro davlat universiteti,

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi, (PhD)

Qurbanova Manzura Shuxratulla qizi

Buxoro davlat universiteti, Filologiya fakulteti talabasi

Islomiy mazmundagi kitob va romanlar yozishi, konfrensiyalardagi nutqlari bilan mashhur bo‘lgan Omina Shenliko‘g‘lining turk adabiyotida tutgan o‘rni beqiyosdir. Uning qalamdan to‘kilgan mislsiz durlar o‘z tili va adabiyotining dovrug‘ini dunyoga taratdi. Adibaning kitobxonlar orasida ma‘lum va mashhur bo‘lishiga ulgurgan bir qancha hayotiy hamda yozuvchi ong-u tafakkurida paydo bo‘lgan va dunyo yuzini ko‘rgan asarlari kutubxonalarda, kitob rastalarda o‘z o‘rnini topib ulgurgan. Jumladan, uning "Mahkum tuyg‘ular", "Men kimning qurbaniman", "Ruhim oynasi", "Mariya", "So‘nggi pushaymon foyda etar" singari romanlar, Yig‘latgan yillar nomli xotiralar kitobi, "Vijdon azobi" nomli to‘plamlari mashhur. Bundan tashqari, yozuvchining din ahkomlarida yanada mustahkamroq bo‘lishga har yerda sabr etib, Ollohnning jamolini, vasfini ko‘rishga undaydigan asarlari talaygina. Bunday asarlar sirasiga "Imomning maneken qizi", "Dor ostidagi odam", "Mariya", "Vijdon azobi" singari asarlarni sanab o‘tishimiz mumkin. Omina Shenliko‘g‘lining asarlari markazida Islom dini yuqori o‘rinni egallaydi. Jamol Kamol bilan bo‘lgan suhbatlarning birida u shunday mazmundagi so‘zlarni keltirib o‘tadi. "Islom dinida, islomda yozilmagan har qanday asar, asar emas," - deydi. Bundan kelib chiqadiki, Omina Shenliko‘g‘li haqiqatni, Haqni yozadigan yozuvchilar. Adiba "Butun dunyoni Islom qutqaradi," - deydi.<sup>1</sup>

Adibaning "Vijdon azobi" nomli to‘plami roman maktublar sirasiga kiradi. Asar 1992-yilda to‘plam holida nashr etilgan. Mazkur asarda turli-tuman insonlarning hayotlari davomida boshidan o‘tkazgan bir-biriga mutlaqo o‘xshash bo‘lmagan taqdirlarning vijdon azoblari kishini o‘yga toldiradi, mulzam qiladi. Vijdoni qiyonoqda bo‘lgan, afsus-nadomatlardan qiynalgan ko‘ngillarning avfnoma, iqrornoma, ibratnoma, dardnomalaridan tarkib topgan yaxlit bir asardir. Maktublar Vijdon azobi nomli jurnalda e’lon qilib boriladi. Ba’zilariga yozuvchi maslahat, hamdardlik shaklidagi javob xatlarini yozib yuborgan. Maktublar bilan tanishlar ekansiz, ulardagi turli, mutlaqo bir-biriga o‘xshamas vijdon azoblariga duch kelasiz. Ba’zilarni o‘qigan kitobxonning ko‘z yoshlari shashqator bo‘ladi, ayrimlarida achinish hissi paydo bo‘ladi, hayratlanarli, alamli taqdirlarning vijdon azoblariga duch kelamiz. Dardlar xilma-xil, insonlar turfa, hayot yo‘llari o‘zga, ammo davosi yagona. Bu — Islom.

<sup>1</sup> Omina Shenliko‘g‘li "Mariya" ("Zukko kitobxon" nashriyoti, 2021, 84-bet)

Qahramonlar o‘z hayotidan so‘zlarkan aytgan gapidan, qilmishidan, harakatlaridan vaqt o‘tib vijdoni uyg’ongan mahalda najotni faqat Ollohdan topishi mumkin ekanligini tushunib yetadi. Asarni o‘qib faqat vijdon azoblari bilan tanishibgina qolmay, o‘zingiz ham beixtiyor vijdoningizni so‘roqqa tortasiz. Qayerda, qanday, qay holatda qilgan xatolaringizni o‘ylab, vijdoningizni bir qur junbushga keltirasiz. Kuyanasiz, afsuslanasiz, qiyinalasiz, o‘ylanasiz, qo‘rqasiz...

Asar tarkibidagi Islom dinidan xabarsiz bir qizning maktubidan parcha keltirsam:

"... Bolam eshakka minishni yaxshi ko‘rardi. Biz uyda yo‘q paytimizda eshak bilan o‘ynash uchun ipning bir uchini eshakning beliga, bir uchini o‘zining beliga bog’lagan... Qishloq kuchuklari kelib hurgach, eshak jon-jahdi bilan yugurgan va o‘g‘limni sudrab ketgan... Oh o‘g‘lim! Pora-pora bo‘lgan bolam! Har bo‘lagini har yerdan terib to‘pladik. O‘sanda lop etib mushuk bolasi ko‘z oldimga keldi..."<sup>2</sup>

Maktubni o‘qir ekanmiz, achinish, qayg’urish hissi paydo bo‘ladi. Lekin oxirida bir jumboqli holat e’tiborimizni tortadi. Nega endi mushuk bolasi uning ko‘z oldiga keladi. Sababi shuki, qiz islomdan xabarsiz holda ulg‘ayib, pishirgan ovqatini yeb qo‘ygan mushuk bolasini jahl ustida o‘ldirib qo‘yadi. Bilmaydiki, dinda hayvonlarga ozor berish gunoh ekanligini. Qaytar dunyo deganlaridek, uning qilgan ishi farzandi orqali qaytdi.

"...Bu kecha birinchi bor xufton namozini o‘qidim. "Ibodatlarimni qabul qilasanmi, Yo Rab!..." deya yig‘ladim... Allohdan uyalaman... O‘zimdan uyalaman... Onamning mozotini bilmayman... Barcha mozotlardan uyalaman..."<sup>3</sup>

"Alloh bu dunyoni hamma uchun yaratgan, ammo jannatni unga loyiq bo‘lganlar uchun yaratgan... Qiyalsang ham, xohishining bo‘lmasa ham ,albatta, ibodat qilib tur. Ibodat qilmaslik uchun o‘zingcha bahona qilma."<sup>4</sup>

Asarda berilgan maktublar turli illatlarni ochuvchi kalit vazifasini ham o‘tagan. Xususan, ota-onaga hurmatsizlik, aka-uka munosabatlarida mehr-oqibat tuyg‘ularining yo‘qolganligi, o‘g‘rilik, ichkilikbozlik, xotinbozlik, fohishalik, g‘iybatchilik, ko‘rolmaslik, odamlarning turli hodisalarga nisbatan noto‘g‘ri talqinlari, tor doirada fikrlashlari va yana shu kabi razolatga boshlovchi salbiy vijdon egalarining hikoyalari orqali namoyon etilgan.

Barcha ne’matlarni ato qilguvchi - Olloh, so‘ngsiz qahr bilan intiqom olguvchi ham Olloh. Osmonlar-u yerda U zotga shukrlar ko‘p. Avval-u oxir U zot uchun hamdlarga to‘la!<sup>5</sup>

Ular o‘zlariga musibat yetganda: "Albatta, biz Allohnikimiz va albatta,biz Unga qaytuvchimiz", - deganlardir.<sup>6</sup>

<sup>2</sup> Omina Shenliko‘g‘li "Vijdon azobi" 4-bet

<sup>3</sup> Omina Shenliko‘g‘li "Vijdon azobi" 66-bet

<sup>4</sup> Omina Shenliko‘g‘li "Mariya" 34-bet

<sup>5</sup> Ilhyou ulumid-din. O‘limni eslash kitobi. Imom G’azzoliy

<sup>6</sup> Baqara surasi 56-oyat

"... Inson Allohga qaytmaguncha— ibodat qilmaguncha ruhiy farog‘atga aslo erisholmaydi, aslo g‘am-anduh, qayg‘u-g‘ussadan qutula olmaydi. Dardli birodarlarimizga shuni tavsiya qilish bilan hamdardmiz. Niyat — Alloh rizosidir. Bomdodga tur, tahorat qil, namozingni o‘qi birodar! Keyin quyosh chiqqunicha tasbehda bo‘l. Alloh senga bergen 24 soatning bir soatini Unga bermoqdasan. Ko‘pmi? Tilni ishlatmasdan, ovozsiz, butun vujudining bilan Alloh, Alloh, Alloh de... Har Alloh deganingda qalbing yumshayotganini his qilasan. Bu o‘lchov INSON uchundir. Bu qalbingizdagи barcha butlarni, tog‘utlarni, shirklarni uloqtirib, qalbingizni tozalamasangiz, Islomni bir butun holda qabul qilmasangiz, istagancha tasbeh o‘giring foydasizdir. Avvalo, Islomning barcha amallarini qabul qilmoq shartdir. 5 vaqt namozni hech ham o‘tkazib yubormang. Bu orada katta-kichik guvohlarga yaqinlashmang. Bu vaqt ni Allohnini tanishga Islomni o‘rganmoqqa sarf qil. Ba‘zi bechoralardek, ziddiyatli, murakkab, qarama-qarshi ahvolga tushib qolma. Islomni bilim bilan tani. Dardingni Islomdan nafi tegadigan va senga va‘z ayta oladigan kishilarga ayt. Islomning dardi bilan dardlanki, o‘zingni dardlaring o‘zingga doston bo‘lib kelsin. Agar Islom dushmanlarining qiliqlaridan xafa bo‘ladigan bo‘lsang, oyoq kiyimingni yo‘qligi senga dard bo‘lmaydi. Chunki aqling va dilingda boshqa dard bo‘lur... Allohga komil ishonmaguningcha, Allohnini sevmaguncha, Unga suyanmaguncha, Unga qaytmaguncha, oxirida sevganlar bilan birga bo‘lishga ishonmaguncha bir so‘z bilan aytganda, DIYONAT bilan yashamaguncha iztiroblardan qutula olmaysan!"<sup>7</sup>

"Shunday dardlar borki, tasallisi faqat iymondandir."<sup>8</sup>

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Omina Shenliko‘g‘li "Mariya" ("Zukko kitobxon" nashriyoti, 2021)
2. Omina Shenliko‘g‘li "Vijdon azobi"
3. Ilhyou ulumid-din. O‘limni eslash kitobi. Imom G’azzoliy
4. "Baqara" surasi 56-oyat
5. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE VERSES OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 372-380./cy
6. Rakhmuddinovna S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood...) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 31-36.
7. Raxmuddinovna S. Z. et al. USTOZ-IBROHIM HAQQUL IJODIGA CHIZGILAR //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 21. – №. 2. – C. 113-117.

<sup>7</sup> Omina Shenliko‘g‘li "Vijdon azobi" 34-bet

<sup>8</sup> Omina Shenliko‘g‘lining "Imomning maneken qizi "

8. Rakhmuddinovna S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 112.
- 9.Rakhmuddinovna S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 142-146.
10. Rakhmuddinovna S. Z. CHU JILVA AYLADI UL HUSN ISTABON OSHIQ.. //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 132.  
Бекова Н. Ж., Сайлиева З. Р. "Девони Фони": издания и исследования //Филология и лингвистика в современном обществе. – 2014. – С. 20-22.
11. Бекова Н. Ж., Жалилова Л. Ж., Сайлиева З. Р. On a separate literary sources of the poetry collection " Sittai Zaruriya" by Alisher Navoi //Современная филология. – 2014. – С. 45-47.